



**BUXORO DAVLAT  
PEDAGOGIKA  
INSTITUTI**

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA  
INSTITUTI**

**TA'LIM TRANSFORMATSIYASI**

**ILMIY – METODIK JURNAL**

---

**№. 1**

**BUXORO – 2026**

## SUN'IY INTELLEKT FOYDALIMI YOKI ZARARLI?

*Quliyeva Mukarram Primovna*, Buxoro viloyati Vobkent tuman 30-umumiy o'rta ta'lim maktab psixologi

[ogabekmarufov77@gmail.com](mailto:ogabekmarufov77@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining zamonaviy jamiyatdagi o'rni, ularning ijobiy va salbiy jihatlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda tibbiyot, iqtisodiyot, ta'lim va transport kabi asosiy sohalarda sun'iy intellektning qo'llanilishi ko'rib chiqilib, uning samaradorlikni oshirish, qaror qabul qilishni optimallashtirish va inson mehnatini yengillashtirishdagi roli yoritiladi. Shu bilan birga, ish o'rinlarining qisqarishi, algoritmik tarafkashlik, axborot xavfsizligi va etik muammolar kabi xavflar ham tahlil qilinadi. Natijalar sun'iy intellektning foydali yoki zararli bo'lishi uning qo'llanish mexanizmlari va boshqaruv darajasiga bog'liqligini ko'rsatadi. Maqolada sun'iy intellektni samarali va xavfsiz rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ham ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, algoritmik tarafkashlik, raqamli iqtisodiyot, axborot xavfsizligi, etik muammolar, innovatsiya, mehnat bozori

## ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ ПОЛЕЗЕН ИЛИ ВРЕДЕН?

*Кулиева Мукаррам Примовна*, психолог средней общеобразовательной школы №30 Вабкентского района Бухарской области

[ogabekmarufov77@gmail.com](mailto:ogabekmarufov77@gmail.com)

**Аннотация.** В данной статье анализируется роль технологий искусственного интеллекта в современном обществе, а также их положительные и отрицательные стороны на основе научных источников. В исследовании рассматривается применение искусственного интеллекта в ключевых сферах, таких как медицина, экономика, образование и транспорт, с акцентом на повышение эффективности, оптимизацию принятия решений и снижение трудозатрат. Наряду с этим анализируются риски, включая сокращение рабочих мест, алгоритмическую предвзятость, проблемы информационной безопасности и этические вопросы. Результаты показывают, что полезность или вред искусственного интеллекта зависит от механизмов его применения и уровня регулирования. В статье также предложены рекомендации по безопасному и эффективному развитию данных технологий.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, автоматизация, алгоритмическая предвзятость, цифровая экономика, информационная безопасность, этика, инновации, рынок труда

## IS ARTIFICIAL INTELLIGENCE BENEFICIAL OR HARMFUL?

*Quliyeva Mukarram Primovna*, is a psychologist at Secondary School No. 30 in Vobkent District, Bukhara Region

[ogabekmarufov77@gmail.com](mailto:ogabekmarufov77@gmail.com)

**Abstract.** This article examines the role of artificial intelligence technologies in modern society, analyzing their benefits and risks based on scientific evidence. The study explores the application of AI in key sectors such as healthcare, economics, education, and transportation, highlighting its potential to enhance efficiency, optimize decision-making, and reduce human labor. At the same time, it addresses major challenges, including job displacement, algorithmic bias, data privacy concerns, and ethical issues. The findings indicate that the impact of artificial intelligence—whether beneficial or harmful—largely depends on its implementation mechanisms and governance frameworks. The paper also provides recommendations for the safe and effective development of AI technologies.

**Keywords:** artificial intelligence, automation, algorithmic bias, digital economy, data security, ethics, innovation, labor market

## **KIRISH**

So‘nggi o‘n yilliklarda sun‘iy intellekt (SI) texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining eng muhim drayverlaridan biriga aylandi. Mashinaviy o‘rganish, chuqur neyron tarmoqlar va katta hajmdagi ma‘lumotlarni qayta ishlash imkoniyatlari natijasida SI tibbiyot, iqtisodiyot, ta‘lim, transport va sanoat kabi ko‘plab sohalarida keng qo‘llanilmoqda. Ushbu texnologiyalar inson mehnatini yengillashtirish, samaradorlikni oshirish va murakkab muammolarni hal qilish imkonini bermoqda. Biroq, SI rivojlanishi bilan bog‘liq xavotirlar ham ortib bormoqda. Jumladan, ish o‘rinlarining qisqarishi, axborot xavfsizligi muammolari, algoritmik diskriminatsiya va inson qarorlarini avtomatlashtirishning etik jihatlarini ilmiy doiralarda keng muhokama qilinmoqda. Ayrim tadqiqotchilar SI insoniyat uchun ulkan imkoniyatlar yaratishini ta‘kidlasa, boshqalar uning nazoratsiz rivoji jiddiy xavflarga olib kelishi mumkinligini qayd etadi. Mazkur maqolaning maqsadi — sun‘iy intellektning foydali va zararli jihatlarini ilmiy manbalar asosida tizimli tahlil qilish, mavjud empirik dalillarni ko‘rib chiqish va muvozanatli xulosa berishdir.

## **TADQIQOT OBYEKTI**

Mazkur tadqiqotning obyekti sifatida zamonaviy jamiyatda keng qo‘llanilayotgan sun‘iy intellekt (SI) texnologiyalari va ularning inson faoliyatining turli sohalariga ta‘siri olinadi. Sun‘iy intellekt deganda, inson aqliy faoliyatiga xos bo‘lgan o‘rganish, tahlil qilish, qaror qabul qilish va muammolarni hal etish kabi jarayonlarni modellashtiruvchi va avtomatlashtiruvchi algoritmlar hamda dasturiy tizimlar majmui tushuniladi. Bugungi kunda SI texnologiyalari iqtisodiyot, tibbiyot, ta‘lim, sanoat, transport, moliya va ijtimoiy boshqaruv tizimlarida keng joriy etilgan. Shu sababli, tadqiqot obyekti sifatida faqat texnologiyaning o‘zi emas, balki uning qo‘llanilish jarayonlari, natijalari va oqibatlarini ham kompleks tarzda ko‘rib chiqiladi. Ya‘ni, sun‘iy intellektni alohida texnik vosita sifatida emas, balki ijtimoiy-texnologik fenomen sifatida o‘rganish ushbu tadqiqotning asosiy yo‘nalishidir.

Tadqiqot obyekti doirasida sun‘iy intellektning quyidagi asosiy komponentlari qamrab olinadi. Mashinaviy o‘rganish (machine learning) va chuqur o‘rganish (deep learning) texnologiyalari. Ushbu yo‘nalishlar SI tizimlarining asosini tashkil etib, katta hajmdagi ma‘lumotlar asosida mustaqil ravishda o‘rganish va natijalar chiqarish imkonini beradi. Mazkur komponentlar orqali SI tizimlari inson aralashuvisiz qaror qabul qilish darajasiga yaqinlashmoqda, katta ma‘lumotlar (Big Data) bilan ishlash jarayonlari. SI tizimlarining samaradorligi ko‘p jihatdan ma‘lumotlar hajmi va sifatiga bog‘liq. Shu sababli, tadqiqot obyekti doirasida ma‘lumotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va tahlil qilish mexanizmlari ham muhim o‘rin tutadi, avtomatlashtirish va robototexnika tizimlari. Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida inson mehnatini SI asosidagi avtomatlashtirilgan tizimlar bilan almashtirish jarayoni kengayib bormoqda. Bu esa mehnat bozori va iqtisodiy munosabatlarga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi, inson va SI o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar. Tadqiqot obyekti nafaqat texnologik tizimlarni, balki ularning inson bilan o‘zaro ta‘sirini ham qamrab oladi. Bu yerda inson qarorlarini qo‘llab-quvvatlovchi tizimlar, virtual yordamchilar va kognitiv tizimlar, etik va huquqiy jihatlar, ya‘ni, SI texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog‘liq ravishda yuzaga kelayotgan etik muammolar (masalan, algoritmik adolatsizlik, maxfiylik buzilishi) ham tadqiqot obyekti tarkibiga kiradi. Shu bilan birga, SI ni tartibga soluvchi normativ-huquqiy mexanizmlar ham o‘rganiladi.

Mazkur tadqiqot obyekti doirasida sun‘iy intellektning ikki tomonlama tabiati — ya‘ni uning foydali va zararli jihatlarini kompleks tarzda tahlil qilinadi. Foydali jihatlar sifatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, inson xatolarini kamaytirish, tibbiyotda aniq diagnostika imkoniyatlarini kengaytirish va ta‘lim jarayonini individuallashtirish kabi omillar ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, zararli jihatlar sifatida ish o‘rinlarining qisqarishi, ijtimoiy tengsizlikning ortishi, ma‘lumotlar xavfsizligi muammolari va texnologiyalarga ortiqcha bog‘liqlik kabi omillar tahlil qilinadi.

## **QO‘LLANILGAN METODLAR**

Mazkur tadqiqotda sifat va miqdoriy tahlil elementlarini o‘z ichiga olgan kompleks yondashuv qo‘llanildi. Asosiy metodlar quyidagilardan iborat:

1. Adabiyotlar tahlili (literature review) - soʻnggi 10–15 yil davomida chop etilgan ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari (OECD, UNESCO, World Economic Forum), hamda texnologik kompaniyalar tomonidan eʻlon qilingan tadqiqotlar oʻrganildi.

2. Taqqoslash tahlili (comparative analysis) - turli sohalarda (tibbiyot, iqtisodiyot, transport, taʻlim) SI qoʻllanilishining ijobiy va salbiy natijalari solishtirildi.

3. Empirik maʼlumotlar tahlili - ish oʻrinlari avtomatlashtirilishi, ishlab chiqarish samaradorligi, diagnostika aniqligi kabi koʻrsatkichlar boʻyicha statistik maʼlumotlar umumlashtirildi.

4. Kritik tahlil (critical analysis) - SI bilan bogʻliq xavflar — algoritmik tarafdashlik, axborot manipulyatsiyasi, maxfiylik buzilishi kabi masalalar chuqur tahlil qilindi.

### **OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI**

Zamonaviy texnologiyalar taraqqiyoti insoniyat hayotini tubdan oʻzgartirib yubordi. Ayniqsa, sunʼiy intellekt bugungi kunda taʻlim, tibbiyot, ishlab chiqarish va kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning: “Bugun insoniyat yangi sivilizatsiya bosqichiga – sunʼiy intellekt davriga dadil qadam qoʻymoqda. Qaysi soha boʻlmasin, kim bu jarayonda qattiq izlanib, aniq natija qilsa, bir qadam oldinda yursa, marra shuniki boʻladi, – degan fikrlari gapimizning yaqqol isbotidir. Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan “Besh million dasturchi”, “Besh million promterlar” loyihalari ham Sining jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib borayotganini koʻrsatadi. Tibbiyot sohasida sunʼiy intellekt diagnostika aniqligini sezilarli darajada oshirmoqda. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, neyron tarmoqlar rentgen va MRT tasvirlarini tahlil qilishda ayrim hollarda shifokorlardan ham yuqori aniqlik koʻrsatkichlariga erishmoqda (90–95% aniqlik). Bu esa kasalliklarni erta aniqlash imkonini beradi. Microsoftning Yangi tadqiqotlarga koʻra, ayrim AI tizimlari murakkab klinik holatlarni aniqlashda shifokorlardan sezilarli darajada ustun natija koʻrsatgan (85% aniqlik). Bundan tashqari, AI yordamida bemor natijalari 20–25% ga yaxshilangan, jarrohlik muvaffaqiyati 35% ga oshgan, tibbiy xizmat xarajatlari yiliga 150 mlrd dollar gacha kamayishi prognoz qilinmoqda. Bu holatlarni sunʼiy intellektning katta yutuqlari desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Iqtisod sohasida Sunʼiy intellektning ishtiroki borasida McKinsey va boshqalarning olib borgan tadqiqotlariga koʻra, SI 2030-yilgacha global YAIMni 13–15 trillion dollarga oshirishi mumkin. Sunʼiy intellekt ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish sohaslarida samaradorlikni sezilarli oshiradi. Avtomatlashtirish natijasida ayrim sohalarda ish jarayonlarining 45% gacha qismi avtomatlashtirilishi mumkin. Raqamli avtomatlashtirish orqali global miqyosda yiliga 2 trillion dollar tejash imkoniyati mavjud. AI asosidagi tizimlar mijozlarga xizmat koʻrsatishda ishchi kuchini 30–70% gacha qisqartirib, samaradorlikni oshirgan.

SI bugungi kunda taʻlim sohasining ajralmas qismiga aylanmoqda. SI asosidagi platformalar oʻquvchilarning bilim darajasi va oʻrganish tezligiga moslashgan holda taʻlim beradi. Bu esa bilim oʻzlashtirish samaradorligini oshiradi. Yordamchi vositalar oʻquvchilar savollariga tez va aniq javob beruvchi virtual yordamchilar taqdim etiladi, til oʻrganishni yengillashtiradi va nutqni tanish va tarjima qilish texnologiyalari yordamida xorijiy tillarni oʻrganish osonlashadi. Masofaviy taʻlim imkoniyatlarini kengaytiradi, sunʼiy intellekt yordamida istalgan joydan sifatli taʻlim olish mumkin.

Har qancha foydali jihatlari mavjud boʻlsa-da, sunʼiy intellektning shaxs rivojiga taʻsiri har doim ham ijobiy boʻlarmaydi. Aksincha, ayrim hollarda u insonning maʼnaviy-ruhiy rivojiga salbiy taʻsir koʻrsatmoqda. Bolalarning sunʼiy intellektdan haddan tashqari foydalanishi mustaqil fikrlash qobiliyatiga putur yetkazishi mumkin. Ilgari odamlar oʻzlari yechim topishga intilar edi, hozir esa sunʼiy intellekt vositalari orqali tayyor javoblarga tayanish odat tusiga kirib bormoqda. Bu esa insonning ijodkorligi va tafakkur salohiyatini susaytiradi. Sunʼiy doʻstlar orqali muloqot qilish natijasida yoshlarda empatiya, muomala madaniyati kabi muhim ijtimoiy koʻnikmalar zaiflashadi. Bu holat shaxsning ruhiy rivojiga salbiy taʻsir koʻrsatadi. Sunʼiy intellektga haddan tashqari ishonch ortidan bolalarda oʻz imkoniyatlariga boʻlgan ishonch pasayadi, kreativlik

ijodkorlik xususiyatlarini pasayib ,dangasa bo'lib qolishga olib keladi. Ayniqsa, yosh avlod orasida bu holat keng tarqalmoqda. Oilaviy tarbiya borasida ushbu masala yuzasidan fikr yuritganimizda hozirgi kunda bolalar dardini,muammosini ota-onaga emas, sun'iy intellektga aytmoqda.Muammosini yechimini ota-onadan, yaqinlaridan emas,balki sun'iy intellektga berib javobini olmoqda. Bu esa farzand va ota-onani bir-biridan uzoqlashtirmoqda,"oila "deb atalmish "muqaddas qo'rg'on"ning darz ketishiga sabab bo'lmoqda. Bolaning ruhiy kechinmalari,muammolaridan ota-ona bexabar qolmoqda va ular o'rtasidagi munosabatlarini qiyinlashtirmoqda. Ota-onalar bu masalaga jiddiy qarab "inson mehri"deb atalgan insoniylikning asosi bo'lgan, insonlarni bir biriga yaqinlashtiradigan ,samimiylik g'amxo'rlikni oshiradigan tuyg'udan o'z o'rnida foydalansalar oilaviy munosabatlarni mustahkamligiga erishadilar.

Undan tashqari, maxfiylik va kuzatuv sohasidagi muammolarga olib kelishi,ya'ni, katta ma'lumotlar (Big Data) asosida ishlovchi SI tizimlari shaxsiy ma'lumotlarni keng miqyosda yig'adi. Bu esa maxfiylik buzilishi xavfini oshiradi, axborot manipulyatsiyasi,ya'ni, sun'iy intellekt yordamida deepfake videolar va avtomatik kontent yaratish texnologiyalari noto'g'ri axborot tarqatishni osonlashtiradi.

### **XULOSA**

Sun'iy intellekt insoniyatga katta yengilliklar olib kiritgani bilan birga, u shaxs rivoji uchun xavfli jihatlarni ham keltirib chiqarmoqda. Shu bois, sun'iy intellektdan foydalanganda muvozanatni saqlash, mustaqil fikrlash, ijtimoiy aloqalarni saqlab qolish va ongli ravishda texnologiyalardan foydalanish har bir shaxs uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari asosida aniqlanishicha, sun'iy intellektning ijobiy jihatlari, avvalo, uning yuqori samaradorlik va aniqlikni ta'minlash qobiliyatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, tibbiyot sohasida SI diagnostika jarayonlarini takomillashtirib, kasalliklarni erta aniqlash imkonini bermoqda, bu esa inson hayotini saqlab qolish darajasini sezilarli oshiradi. Ta'lim sohasida esa SI asosidagi adaptiv o'qitish tizimlari individual yondashuvni kuchaytirib, o'quvchilarning bilim o'zlashtirish samaradorligini oshirmoqda. Iqtisodiyotda esa avtomatlashtirish jarayonlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, xarajatlarni kamaytirish va yangi innovatsion mahsulotlar yaratish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, tadqiqot sun'iy intellektning salbiy jihatlari ham mavjud ekanligini aniq ko'rsatdi. Eng muhim muammolardan biri — mehnat bozori bilan bog'liq o'zgarishlardir. Avtomatlashtirish natijasida ayrim kasblarning yo'qolishi yoki qisqarishi ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi mumkin. Bu esa, ayniqsa, past malakali ishchi kuchi uchun jiddiy xavf tug'diradi. Bundan tashqari, algoritmik tarafkashlik muammosi SI tizimlarining ijtimoiy adolatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ko'rsatadi. SI tizimlari o'qitilgan ma'lumotlarga bog'liq bo'lganligi sababli, mavjud ijtimoiy stereotiplar va notengliklarni takrorlash ehtimoli yuqori. Tadqiqot davomida aniqlangan yana bir muhim jihat — bu axborot xavfsizligi va maxfiylik masalalaridir. Sun'iy intellekt tizimlari katta hajmdagi ma'lumotlarga asoslanib ishlaydi, bu esa shaxsiy ma'lumotlarning noto'g'ri ishlatilishi yoki tarqalishi xavfini oshiradi. Shu nuqtai nazardan, SI rivoji bilan birga maxfiylikni himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Tadqiqot natijalarining muhim xulosalaridan biri shundan iboratki, sun'iy intellektning foydali yoki zararli bo'lishi uning o'z tabiatiga emas, balki insonlar tomonidan qanday boshqarilishiga bog'liqdir. Ya'ni, SI neytral texnologiya bo'lib, uning ta'siri uni qo'llash maqsadi, boshqaruv mexanizmlari va nazorat darajasi bilan belgilanadi. Shu sababli, sun'iy intellektni rivojlantirishda "inson markazli yondashuv" tamoyiliga amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajak istiqbollari nuqtai nazaridan qaraganda, sun'iy intellektning roli yanada ortib borishi kutilmoqda. Bu esa jamiyatning barcha sohalarida chuqur transformatsiyalarni yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, ushbu transformatsiyalarni samarali boshqarish uchun davlatlar, ilmiy doiralari va xususiy sektor o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish zarur. Ayniqsa, ta'lim tizimini zamonaviylashtirish, kadrlarni qayta tayyorlash va yangi ko'nikmalarni rivojlantirish orqali inson kapitalini mustahkamlash muhim ahamiyatga ega.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, sun'iy intellekt — bu ikki qirrali fenomen bo'lib, u bir tomondan insoniyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi kuchli vosita, boshqa tomondan esa noto'g'ri boshqarilganda jiddiy xavflarni yuzaga keltiruvchi omildir. Shu bois, SI dan maksimal foyda olish va uning salbiy oqibatlarini minimallashtirish uchun ilmiy asoslangan, muvozanatli va mas'uliyatli yondashuv zarur. Faqat shundagina sun'iy intellekt insoniyat farovonligiga xizmat qiluvchi vositaga aylanishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. A. A. Abduqodirov. Sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyot asoslari. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti. 2021;
2. B. S. Yuldashev. "Sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri". Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali. №4. 2020;
3. SH.M Karimov. Raqamli transformatsiya sharoitida sun'iy intellekt rivoji. Toshkent: Innovatsion rivojlanish vazirligi nashriyoti.2022;
4. O. T. Rasulov. "Sun'iy intellekt va mehnat bozori: muammolar va istiqbollar". Ijtimoiy fanlar jurnali. №3. 2021;
5. Tursunov, D. X. Axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt tizimlari. Toshkent: Oliy ta'lim nashriyoti.2019;
6. Qodirova, N. R. "Sun'iy intellektning etik muammolari va ularni hal etish yo'llari". Zamonaviy ta'lim jurnali. №2. 2023.
7. <https://president.uz/>
8. <https://uz.wikipedia>.
9. <https://najottalim.uz/>.